



TALABALARING HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR XODIMLARI BILAN UCHRASHUVLARINI TASHKIL ETISH ASOSLARI

Xamraulov Zafarjon Yigitaliyevich

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., PhD.

Gmail: zafarjonxamraulov@gmail.com

Annotatsiya: maqolada talabalarning huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari bilan uchrashuvlarini tashkil etish asoslari haqidagi ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, organlar xodimlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish uchun qanday omillarga e'tibor berish kerakligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: talabalar, huquqni muhofaza qiluvchi organ, ta'lim, jinoyat huquqi, pedagog, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.

Jinoyat huquqi fanini o'qitilishida talabalarni huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari bilan uchrashuvlarining tashkil etilishida ob'ektiv va sub'ektiv omillarni inobatga olish zarur. Har ikki omillar talabalarni huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlaridan o'zları uchun zaruriy bo'lgan ko'nigmaga ega bo'lislighiga to'g'ri yo'naltirishga imkon beradi.

Ob'ektiv omillarga ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasiga mazkur tadbirlarning kiritilganligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan aloqalarning o'rnatilganligi, uchrashuvlar tashkil etish uchun auditoriya va zallarning borligi, elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlarining yetarliligi kabi qulayliklar kiradi.

Sub'ektiv omillar uchrashuvlarni tashkil etuvchi o'qituvchining bu sohadagi tajribasining borligi, uchrashuvni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadning oldindan belgilay olishi, talabalarning huquqni muhofaza qilish sohasiga qiziqishlari, jinoyat huquqiga nisbatan talabalar qiziqishining yuqoriligi va boshqalar kiradi.

Jinoyat huquqi fanini o'qitilishida huquqni himoya qiluvchi organlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish uchun quyidagi omillarga e'tibor berish kerakligi oydinlashdi:



1. Jinoyat huquqi fanining o'qitilishida huquqni himoya qiluvchi organlar bilan uchrashuvlar o'tkazishga alohida tayyorgarlik ko'rish.

Jinoyat huquqi fanining o'qitilishida huquqni himoya qiluvchi organlar bilan uchrashuvlar o'tkazishga alohida tayyorgarlik ko'rish maqsadga muvofiqli. Buning uchun quyidagi jarayonga e'tibor qaratish kerak:

- organ xodimlari bilan o'tkaziladigan tadbir mavzusi oldindan belgilab olinishi;
- soha xodimlarining ish rejimiga qarab muayyan muddat rejalashtirilishi;
- katta zal yoki auditoriyaning tayyor holga keltirilishi;
- muhokama mavzusi doirasida talabalarning maksimal bilim olishlari uchun zarur bo'ladigan savollarni oldindan tayyorlash;
- tadbir vaqtining cho'zilib ketishining oldini olish uchun vaqt nazoratini olib borish;
- talabalar tomonidan savollar berilishi uchun ko'proq vaqt ajratilishiga erishish;
- qolgan auditoriyalardagi darslarning borishiga halaqit berishlikning oldini olish va boshqa zaruriy choralarini ko'rish.

2. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan uchrashuvlar tashkil etish orqali o'qituvchilarning ham yetarli tajribaga ega bo'lishiga erishish.

Jinoyat huquqi fanidan dars beruvchi o'qituvchi uchun faqat pedagogik ta'lilda o'qitiladigan huquqshunoslik fanlarini bilishining o'zi kamlik qiladi. Pedagogning faoliyat samaradorligi o'z fani bilan cheklanib qolmasligi zarur. Zero talabalar tomonidan beriladigan savollar jinoyat huquqi bilan cheklanmay, u o'zida jinoyat-protsessual huquqi, jinoyat-ijroiya huquqi, kriminalistika, sud psixiatriyasi, sud ekspertizasi kabi sof yuridik fanlarga doir bo'lishi mumkin. Bunday hollarda o'qituvchi hech bo'limganda talabani to'g'ri yo'naltira olishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan uchrashuvlarda talabalarning o'zi bilimlari doirasini kengaytiradi, deyish ham to'g'ri emas. Uchrashuvlarda organ xodimlari nazariyotchi o'qituvchilar uchun ham yangilik bo'lgan ma'lumotlarni berishi mumkin. Shuning uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan uchrashuvlarda boshqa o'qituvchilarni ham taklif etish maqsadga muvofiqli.

3. Talabalar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishda jinoyat huquqining boshqa fanlar bilan aloqadorligidan unumli foydalanish.



Talabalarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish jinoyat huquqining o'zi bilan cheklanmaydi. Pedagogik ta'lilda o'qitiladigan yuridik fanlar birgalikda bu vazifani bajaradi. Mazkur holat o'qituvchilarni bir fanning o'zi bilan chegaralanib qolmasligi kerakligini talab qiladi. Ta'lim va tarbiyaning uzviyilagini ta'minlash uchun pedagog o'z ustida muntazam ishlashi, huquqshunoslikning boshqa sohalari bilan ham shug'ullanishi maqsadga muvofiqli.

4. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar rejasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan uchrashuvlar o'tkazish tadbirlarining o'rinni olishiga erishish.

Pedagogik ta'lilda ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar rejasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan uchrashuvlar tashkil etish tadbirlarini o'rinni olishi jinoyat huquqi fanining o'rganilishini osonlashtiradi. Buning uchun Konstitutsiya kuni, prokuratura, militsiya, davlat xavfsizlik xizmati xodimlari kuni munosabati bilan uchrashuvlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqli. Tyyutorlar tomonidan o'tiladigan darslarda ham jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olishga aloqador mavzulardan foydalanish mumkin. Bundan tashqari, talabalarni advokatura, notariat, uchastka profilaktika nozirligi joylashgan binolarga olib borish, xodimlar bilan muloqot tashkil etish ham yaxshi samara beradi.

5. Huquqni himoya qiluvchi organlar bilan hamkorlikda elektron resurslar imkoniyatlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish.

Hozirgi davr axborot kommunikatsiya texnologiyalari asri bo'lib, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti bilan hech kimni hayron qoldirib bo'lmaydi. Axborot hajmining ortib borishi ularning nazorat qilish imkoniyatini shunchalik kamayib borishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, axborot tarmoqlaridan foydalanib kiberjinoyatlarni sodir etish holatlari ham ko'paymoqda. Xolbuki, axborot tarmoqlaridan ta'lim yo'lida foydalanish ham mumkin. Hozirda deyarli har bir tashkilot va uning bo'linmalari internetda o'z veb-saytlari, elektron pochtalari, Facebook, Telegram, Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifasiga ega. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga oid yangiliklar, qonunchilikka kiritilayotgan o'zgarishlar muntazam ravishda berib boriladi. Vebinlar tashkil etish orqali



huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga doir yangiliklarni jonli muloqot orqali olish imkoniyatlari ham ortmoqda.

6. Huquqni himoya qiluvchi organlar bilan hamkorlik aloqalarida talabalar faolligini ta'minlashga harakat qilish.

Hamkorlik aloqalarini kengaytirish talabalar faolligini yuqoriligiga ham bog'liq. Talabalar bilan faqat davra suhbat ko'rinishidagi uchrashuvlarning yo'lga qo'yilishi, ularni tezda zerikib qolishiga olib keladi. Buning ustiga asosan bir xil mazmundagi suhbatlar kutilgan samarani bermaydi. Buning uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda xilma-xillikni ta'minlash uchun insholar tanlovi, "Eng yaxshi maqola", "Eng yaxshi ssenariy", "Eng qiziqarli kazuslar to'plami" singari tadbirlar, "Huquq bilimdonlari" ko'rik-tanlovi tashkil etish, ularga talabalarning katta qismini jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Tanlovlar va tadbirlarga huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarini hay'at a'zosi sifatida taklif etish zarur. Shuningdek, o'qituvchi o'zining kreativlik qobiliyatidan kelib chiqib talabalar faolligini oshirishning boshqa vositalaridan, jumladan, yangi innovatsion texnologiyalardan ham foydalanishi hamkorlik aloqalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.